



## ANEMIYA VA UNING TURLARI

Ro'zimurodova Durdona Ulug'bek qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Tibbiy biologiya fakulteti 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7220831>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> September 2022

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2022

Online: 18<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

*anemiya, anemiyalar tasnifi, temir tanqisligi anemiyasida, megaloblast anemiyada, o'tkir postgemorragik anemiyada, gipoplastik anemiyada, gipo-, aplastik anemiyada qon va suyak ko'migidagi o'zgarishlar.*

Anemiya- klinik- gemotologik sindromlar guruhi bo'lib, ularning umumiy belgisi qonda gemoglobin va eritrotsitlar miqdorining kamayishi bilan xarakterlanadi.

Anemiyalar tasnifi:

Eritrotsit o'lchami bo'yicha:

mikrositar anemiya;

makrositar anemiya;

normositar anemiya.

Rang ko'rsatkichi bo'yicha:

Rang ko'rsatkich eritrotsitning gemoglobin bilan to'yinganligini ko'rsatadi.

Normada rang ko'rsatkich 0,85-1,05 ga teng. Unga bog'liq bo'lgan anemiya turlari:

1) Gipoxrom anemiya:

- temir tanqisligi anemiyasi;

- talassemiya;

1) Normoxrom anemiya:

-gemolitik anemiya;

-postgemorragik anemiya;

### ABSTRACT

*Anemiyalar differensial diagnostikasida qon va suyak ko'migi sitologik diagnostikasi.*

-o'tkir va surunkali leykozlar, limfomalar;

-aplastik anemiya;

-suyak ko'migidagi o'sma metastazi;

-eritropoetin ishlab chiqarilishi kamayishi hisobiga rivojlangan anemiya.

2) Giperxrom anemiya:

vitamin B12 tanqisligi anemiyasi

-foliy kislota tanqisligi anemiyasi;

-mielodisplastik sindromda refrakter anemiya.

Og'irlik darajasiga ko'ra:

Eng yengil darajadagi anemiya- gemoglobin-90-120 g/l;

O'rta og'ir darajali anemiya- gemoglobin 90-70 g/l;

Og'ir darajali anemiya- gemoglobin 70 g/l dan kam.

Suyak ko'migidagi regeneratsiya xususiyati bo'yicha:



Suyak ko'migining asosiy regeneratsiya belgilari periferik qonda retikulotsitlar oshishidir. Normada retikulotsitlar 1-10%.

aregenator ;

giporegenator;

normoregenator;

giperregenator.

Etiopatogenetik tasnifi.

Surunkali kasalliklar anemiyasi;

Temir tanqisligi anemiyasi;

Megaloblast anemiyalar;

Gemolitik anemiyalar;

Gipo-, aplastik anemiya;

Metaplastik anemiyalar.

Temir tanqislik anemiyasi

Temir tanqisligi anemiyasining sitologik belgilari:

1.Periferik qonda:

Eritrotsit va gemoglobin kamayishi, eritrotsitlar mikrositozi, gipoxromiyasi va pokilositozi.

2.Mielogrammada normoblastik turdagi qon yaratish, eritroid qator giperplaziyasi kuzatiladi.

Megaloblast anemiya

Megaloblast anemiyasiga vitamin B12 va foliy kislotani tanqisligi anemiyalari kiradi va sitologik belgilari:

1.Periferik qonda:

Eritrotsit va gemoglobin kamayishi, eritrotsitlar makrositozi, giperxromiyasi va poykilotsitozi, jolly tanalari, kebolt halqalari, retikulotsitlar kamayishi.

2.Mielogrammada megaloblastik turdagi qon yaratish, eritroid qator giperplaziyasi kuzatiladi.

O'tkir postgemorragik anemiya

O'tkir postgemorragik anemiya qisqa vaqt ichida ko'p qon ketishi bilan xarakterlanadi.

1.Periferik qonda:

Qon ketishidan so'ng normoxrom, normositar anemiya kuzatiladi.

2.Mielogrammada normoblastik turdagi qon yaratish, 4-5 kundan so'ng eritroid qator giperplaziyasi kuzatiladi.

Gemolitik anemiya

Gemolitik anemiya tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Gemolitik anemiya uchun xos bo'lgan sitologik belgilari:

1.Periferik qonda:

Eritrotsit va gemoglobin kamayishi, eritrotsitlar normoxromiyasi va normositozi, tug'ma gemolitik anemiyalarda eritrotsitlar shakli o'zgaradi, ovalositozda ovalsimon hujayralar paydo bo'ladi, retikulotsitlar oshadi.

2.Mielogrammada normoblastik turdagi qon yaratish, eritroid qator giperplaziyasi kuzatiladi.

Gipo- aplastik anemiya

Gipo- aplastik anemiya suyak ko'migidagi o'zak hujayralar kamayishi, natijasida barcha qator hujayralari kamayishi bilan bog'liq. Aplastik anemiya belgilari:

1.Periferik qonda :

Pansitopeniya, eritrotsitlar, trombositlar, leykositlar sonining keskin kamayishi, eritrotsitlar normoxromiyasi va normositozi, nisbiy limfositoz.

2.Mielogrammada suyak ko'migi barcha qator hujayralari kamaygan, limfositlar miqdori nisbiy oshishi kuzatiladi.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, birinchi o'rinda inson to'g'ri ovqatlanish ratsioniga rioya qilish kerak. Ko'proq vitamin, meva va oziq-ovqatlarni iste'mol qilishi kerak.

## References:

1. ÒzMe. Birinchi jild Toshkent, 2000-yil, Òzbekiston Milliy ensiklopediyasi (2000-2005).



2. Tibbiyot ensiklopediyasi. Patologik fiziologiyadan amaliyot darslari qòllanmasi O.A. Husinov(2008)